

**GEOGRAFIYADA MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY
GEOGRAFIYASINI O'QITISH VA TUSHUNCHALAR**

Dexqanova Kamolaxon

*Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani 31-sonli maktabning
Geografiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o'rganishda o'quvchilarda shakllanadigan geografik tushunchalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: geografiya, umumgeografik tushunchalar, xususiy geografik tushunchalar, materik, interfaol metod, re'lef, ekvator chizig'i.

Umumta'lim maktablarida geografiya kurslarini o'qitishda asosiy vazifalardan biri o'quvchilarda geografik tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir. Taniqli olim N.N.Baranskiyning metodikaga oid asarlarida iqtisodiy geografiya tushunchalari haqida, L.A.Polovinkinning metodik asarlarida umumiy geografik tushunchalarning yoritilish masalalari, L.Darinskiyning asarlarida esa tabiiy geografiya kursidagi geografik tushunchalar haqida talaygina ma'lumotlar bor. P.G'ulomov, R.Qurbonniyozov, A.Abdulqosimov, A.Soatov, X.Vahobov, M.Tillaboyevalar tomonidan yaratilgan darslik va qo'llanmalarda umumiy geografik tushunchalarning yoritilish masalalariga atroflicha to'xtalanganlar.

O'quvchilarda shakllanadigan geografik tushunchalar asosan ikki guruhga umumiy va xususiy tushunchalarga bo'linadi. Umumiy geografik tushunchalarga geografik hodisalarning butun bir guruhiga kirib, ularni o'quvchilar idrok etishlari bilan tushunib oladilar. Masalan: tog'lik, zilzila, iqlim mintaqasi, daryo, ko'l, tabiat zonalari va h.k. Umumiy geografik tushunchalar mazmunini aniqlashda uning asosiy belgilari aytiladi. O'quvchilarda umumiy geografik tushunchalarning hosil bo'lishida o'qituvchining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlagan dars ishlanmalari, prezentatsiyalari, ko'rgazmali qurollari juda katta ahamiyatga ega. Chunki, o'qituvchining ko'rgazmali qurollari o'quvchilarda geografik tushunchalarni hosil bo'lishiga yordam berib, ularning kuzatuvchanligi, tafakkurining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Xususiy geografik tushunchalar biror bir geografik ob'yektning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. O'quvchilarda xususiy geografik tushunchalar ham umumiy geografik tushunchalar kabi izchillik bilan idrok etish bilan shakllanadi. Geografiya kurslarida, xususan, "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi"da o'rganiladigan geografik ob'yektlarning ko'pligidan idrok etishda murakkabliklar mavjud. Shuning uchun ham, o'qituvchining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlagan slaydlari, og'zaki tasvir, geografik kartalar, rasm va fotosuratlar,

taqqoslash usullari, diagramma va tablitsalar o'quvchilarda xususiy geografik tushunchalarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarining geografiya kurslari uchun muhim ko'rsatkichlardan biri, o'quvchilarda o'rganilayotgan materiallarga nisbatan qiziqishini orttirish muammosidir. Bu masalani hal etish uchun geografiya o'qituvchisidan o'qitishning turli metodlari va usullari va yangi pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan ko'rgazmali qurollardan, prezentatsiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o'qitilishi jarayonida umumiy geografik tushunchalarni o'quvchilarga yetkazish zarur ekan, eng avvalo, har bir mavzu yuzasidan xususiy geografik tushunchalar tanlab olinadi. Mazkur tanlab olingan xususiy geografik tushunchalar, umumiy geografik tushunchalarning o'quvchilar ongida shakllanishiga zamin bo'ladi. Xususiy geografik tushunchalarni tanlab olishda o'qitish jarayonlarini hisobga olgan holda, turli tabiat hodisalari, aholining hayoti, mahalliy aholining madaniyati, urf-odatlarini, turmush sharoitlarini tasvirlaydigan adabiyot, manbalardan foydalanishni taqozo qiladi. Masalan, materiklarning geografik o'rni, chegaralari, qirg'oqlarning qiyofasi mavzusida quyidagi tartibda dars jarayonida yangi tushunchalar singdirib boriladi:

Ushbu mavzu yuzasidan o'quvchilarda quyidagi geografik tushunchalar shakllanishi kerak: - har bir materikning ekvator chizig'iga va bosh meridianga nisbatan joylashganligi; - har bir materikning geografik koordinatalari, chekka nuqtalari orasidagi masofalar; -materiklarni o'rab turgan okean, dengizlar va ularning nomlari, chuqurligi, sho'rliigi, materik tabiatiga ta'siri; - materiklar qirg'oqlarining qiyofasi, egri - buginligi, orol va yarim orollari, ularning nomlari va h.k.

Materiklarning geografik o'rni, chegaralari, qirg'oqlarining qiyofasi haqidagi tushunchalar shakllanishida karta ustida mashq qilish, "Kartada sayohat" o'tkazish, hisoblash, o'lchash, kartadan ob'yektlarni topish ishlarini bajarish yaxshi natija beradi. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan tayyorlangan qo'shimcha ma'lumotlar, jadvallar ham bu masalani oydinlashtirishda o'z xissasini qo'shadi.

Materiklarning reliefi mavzusi yuzasidan o'quvchilarning oladigan geografik tushunchalari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq: Birinchidan u yoki bu materikning yer usti qanday relief shakllariga ega ekanligi haqidagi tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan; Afrikaning reliefidan - yassi tog'liklar va tog'liklar; Ikkinchidan u yoki bu materikda qaysi relief shakllari asosiy o'rinda turishi haqidagi tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Masalan; Janubiy Amerika materigida asosiy relief shakllari - tog'liklar; Uchinchidan u yoki bu materikda relief shakllarining hususiyatlari haqidagi tushunchalarga ega bo'lishlari kerak va h.k. Janubiy Amerikaning paydo bo'lishiga ko'ra yer yuzining barqaror uchastkalarga bo'linishi, har bir uchastkalarga kiruvchi hududlar, har bir hududda sodir bo'ladigan hodisalar va

ularning sabablari hamda xarakterli tog'lar va yassi tog'liklar haqidagi tushunchalar beriladi.

Geografik tushunchalarni jumladan materiklardagi yosh va keksa tog'lar haqidagi tushuncha berar ekanmiz, bu ikkala tipdagi tog'larning paydo bo'lishi bir xil davrda emasligi tufayli bu tog'lar tashqi kuchlar: harorat, shamol, suvning ta'siri tufayli o'zgarib ketganligi yani tabiatdagi dialektik qonuniyatlar tog'larni hosil bo'lishida qanday ishlashi mumkin ekanligini o'quvchilar tasavvurida shakllantirib boriladi. Shuningdek, yosh baland tog'larga tashqi kuchlardan tashqari ichki kuchlarning ham ta'siri kuchli ekanligi bo'yicha tushunchalar berishda tashqi va ichki omillarga e'tibor qaratilishi lozimligi uqtiriladi.

Adabiyotlar:

1. Даринский В.А. Методика преподавания географии. М. : Просвещение, 1975. 368 с.
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. Texnologiya. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Respublika ta'lim markazi. 2020 y
3. Фуломов П., Курбонниёзов Р. Табiiй география бошланғич курси. 5-синф учун дарслик. Тошкент, "Ўзбекистон", 2003.-134б.